

Chuliyeva Marxabo To`rayevna

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti

(PhD) tayanch doktoranti

TECHNOLOGY MATRICARIA CHAMOMILLA L.

Annotation. *The article describes the eco-physiological description, biological characteristics of the cultivation of medicinal chamomile (MATRICARIA CHAMOMILLA L.) in the conditions of Uzbekistan, as well as ways of effective use of plant raw materials.*

Keywords. *Medicinal chamomile, eco-physiological description, biological properties, flowering, productivity, geographical distribution, agrotechnical measures, raw materials, essential oil.*

KIRISH.

Bugungi kunda dunyo miqyosida farmatsevtika sanoatini rivojlantirish va dorivor o'simliklar xomashyosi asosida tabiiy dori-darmonlar ishlab chiqarishni kengaytirishga, ularni nafaqat tabiatdan yovvoyi holda terib olish, balki plantatsiya usulida ko'paytirish va qayta ishlashni tashkil etishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

O'simlik xomashyosi asosida tayyorlangan biologik faol moddalar (vitaminlar, mikroelementlar, antibiotiklar va boshqalar) aholi o'rtacha umrini uzaytiruvchi va mehnatga layoqatligini ta'minlovchi qimmatli dorivor komponentlar hisoblanib, insonlar salomatligi darajasini oshirishda keng imkoniyatlarga egadir.

Hozirda 138 oilaga mansub bo'lgan O'zbekiston florasida 4148 tur o'simlikni o'z ichiga oladi. Shundan faqat 577 turi dorivor o'simlik hisoblanadi. Bu 47 davlat farmakopiyasiga kiritilgan. Tarkibida ko'p miqdorda vitaminlar va dorivor moddalar saqlagan o'simliklar qatoriga dorivor moychechak (*Matricaria chamomilla L.*) o'simligi ham kiradi.

Shularni inobatga olib sug'oriladigan o'tloqi tuproqlar sharoitida dorivor o'simliklarni yetishtirish, xamda ularning xom-ashyosi va sifatiga o'g'itlarni ta'sirini o'rganish hozirgi davrning muhim masalalaridan biri hisoblanadi. Jumladan, dorivor moychechak (*Matricaria chamomilla L.*) o'simligi ham aynan shunday o'simliklardan biri hisoblanib, tabobatda xom-ashyosi sifatida moychechakning (*Matricaria chamomilla L.*) guli ishlatiladi. Guli tarkibida efir moyi, karotin, vitamin-S va boshqa moddalar bor. Ilmiy tibbiyotda yallig'lanishga qarshi, antiseptik, tinchlantruvchi, yumshatuvchi, ter va yel xaydovchi vosita sifatida ishlatiladi. Moychechakning efir moyi tarkibidagi xamazulen tibbiyotda keng qo'llaniladi. Shu bilan birga dorivor moychechak eksportbop va eksport

o'rnini bosuvchi ekin hisoblanadi. Bu esa respublikamiz iqtisodiyotini rivojlantirishda muhim o'rin tutadi.

Shunday qilib, ushbu qimmatli polivitamin o'simlik – moychechak o'simlik dunyosida foydali xususiyatlari va amaliy foydalanish ko'lamiga ko'ra peshqadam bo'lib, ularni samarali ko'paytirish usullarini takomillashtirish va etishtirish texnologiyasini ishlab chiqishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar dolzarb hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 2013 yil 5 avgustdagi 222-sonli—Dorivor o'simlikshunoslik va yangi dori vositalarini ishlab chiqarish korxonalarini tashkillashtirish uchun dorivor o'simliklarni sanoat miqyosida plantatsiyalarini yaratish qarori, 2015 yil 20 yanvardagi №5-sonli —2015-2017 yillarda o'rmon ho'jaliklari tizimini rivojlantirish, dorivor va oziqabop o'simliklar xom-ashyosini etishtirish, tayyorlash va qayta ishlashni yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risidagi majlis bayonnomasida vitaminli o'simliklarni sanoat miqyosida etishtirish ko'lamini oshirish belgilab qo'yilgan.

Tadqiqot materiallari va metodologiyasi. Tadqiqot ob'ekti sifatida dorivor moychechak (*Matricaria chamomilla L.*) o'simligi olindi. Tadqiqotlarda umumqabul qilingan usulardan hamda davlat standartlari bo'yicha amalga oshirildi. Tadqiqotlar davomida dorivor moychechak o'simligining fenologik kuzatuv ishlari o'z vaqtida olib borildi va o'rganildi.

Mazkur o'simlik respublikamizning boshqa hududlarida o'rganilgan bo'lishiga qaramay, Samarqand viloyati tuproq-iqlim sharoitida *Matricaria chamomilla L.* ni ekish usullari, kasalliklari va yetishtirish texnologiyasi, shuningdek, keng maydonlarda plantatsiyalar tashkil etish to'g'risida ma'lumotlar juda kam. Tadqiqot ishlari 2023 yilda Samarqand viloyati Jomboy tumani o'rmon xo'jaligi tajriba maydonida o'tkazildi.

Qirqmabarg (dorivor) moychechak (gazako't) — **Chamomilla Recutita (L.) Rascheri (Matricaria Recutita L.)**; xushbo'y (yashil) moychechak (gazako't) — **Chamomilla suaveolens (Pursh.) Rydb. (Matricaria suaveolens Buchen., Matricaria discoidea D. C.)**; astradoshlar — **Asteraceae** (murakkabguldoshlar — **Compositae**) oilasiga kiradi.

Geografik tarqalishi. Dorivor moychechak keng tarqalgan bo'lib, u asosan Rossiyaning Yevropa qismining janubida, Kavkaz, Qrim, Ukraina, Sibirning janubiy tumanlari va O'rta Osiyoda uchraydi. Yashil moychechak Sobiq Ittifoqning Yevropa qismida, G'arbiy Sibir va Uzoq Sharqda keng tarqalgan. Mahsulot asosan Ukrainaning janubida, kamroq Krasnodar o'lkasida, Rostov viloyati, Moldova respublikasi va boshqa yerlarda tarqalgan.

***Matricaria chamomilla L.* o'simligini o'stirish texnologiyasi.** Nihollarni biologik xususiyatlari: moychechak urug'larini unishi 6-7°S dan boshlansa-da, optimal harorat 20-25°S hisoblanadi. Agar urug'lar ekilgandan so'ng namlik yetarli

bo'lmasa, urug'lar uzoq vaqtgacha unmasligi mumkin. Bu vaqtda urug' ekilgan maydonlar sug'oriladi.

Moychechak sabzavot ekish moslamasida qator oralari 60x60 sm qilib ekiladi, Urug'i nihoyatda mayda va uni bir tekis ekish uchun urug'ini urug' 1/10 nisbatda qum yoki go'ngga aralashtiriladi. Urug'larini shamol osongina uchurib ketadi, shu boisdan urug' sepilgan yer yengilgina g'altak mashinada bosib o'tiladi.

Har gektariga 2-2,5 kg urug' sarflanadi. Urug' 8-10 kunda unib chiqadi. Urug' unib 2-3 ta barg hosil qilgach egat olinadi. Bunda maysalar juda mayda bo'lganligi sababli uning maysalari tuproq ostida qolib ketmasligi uchun sug'orish egatlari kichik va yuza bo'lishi kerak. Sug'orish ishlari ehtiyotkorlik bilan olib boriladi. Maysalarni yuvib ketmaslik uchun jildiratib sug'oriladi. Parvarish ishlari erta bahorda maysalar paydo bo'lganda olib boriladi. Begona o'tlar qo'lda, ketmonda yoki kultivatorlar yordamida olib tashlanadi.

Nihollar unib chiqqandan so'ng (namlik va havoning harorati normal darajada bo'lganda) 20-40 kunda har bir niholda 6-10 tadan rozetka barglari o'sib chiqadi. Erta bahorda ekilgan nihollardan aprel oyining birinchi o'n kunligida 7-9 tadan rozetka barglari o'sib chiqadi. Mart-aprel oyi davrida bahorning ser yomg'ir kelishi natijasida rozetka barglari tez o'sishi va yiriklashishi natijasida o'simlik o'rtasida poyani o'sib chiqishi va shoxlanishi kuzatiladi. O'simlikni namlik bilan yaxshi ta'minlab borilsa, havo haroratining ko'tarilib borishi natijasida may oyining birinchi o'n kunligida dastlabki gullar ochiladi. Umuman olganda bahorda ekilgan urug'lardan 30- 40 kunda dastlabki gullari ochilishini ko'ramiz.

Kuzatishlar shuni ko'rsatdiki, o'simlik poyalarida endigina paydo bo'lgan g'unchalardan 10-12 kunda gullar ochilishi mumkin.

Shubhasiz bunga havoning harorati, tuproq namligi va tuproqdagi oziqa elementlar muhim rol o'ynaydi. Kunlarning issiqligi va tuproq namligiga qarab, o'simlikdagi bitta savatcha 5-6 kun ochilib turishi mumkin. Havoning harorati o'rtacha 19-21°S bo'lganda gullari yaxshi ochilishi kuzatilgan. Haroratning 30°S dan ortishi gullaring ochilishiga salbiy ta'sir etishi bilan birga ularing maydalashishiga olib keladi. Dorivor moychechak uzoq gullash davriga va urug'larni bir me'yorda yetilmaslik xususiyatiga ega. Bu urug'larni qisman to'kilishiga olib keladi. Shuning uchun dorivor moychechak urug'larini yetishtirishda hosil 60-70 % savatchalar tor konussimon shaklga ega bo'lganda maxsus yasalgan temir moslama yoki moychechak yig'gich uskunalarda yig'iladi.

Vegetatsiya davomida 10-12 martagacha sug'oriladi. Har sug'orishdan so'ng kultivatsiya qilinadi. O'simlikni o'z vaqtida parvarish qilinsa, moychechak gullaridan gektar hisobiga 10-12 sentner hosil yig'ib olish mumkin.

Kasallikka qarshi kurashish. Moychechak o'simligi vegetatsiya davomida barcha madaniy o'simliklar kabi un shudring kasalligi bilan kasallanishi mumkin. Ayniqsa soya yerda ekilgan o'simliklar tez kasallanadi. Un shudring kasalligini

oldini olish va davolash maqsadida fungitsidlardan - topas preparatidan foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Kasallikni oldini olish maqsadida 100 litr suvga 25 ml topasni yeritib purkaladi. Kasallik belgilari paydo bo'lganda esa 100 litr suvga 30 ml dan preparat yeritilib purkaladi. Un shudring kasalligining oldini olish va davolash maqsadida mikrobiologik preparatlardan –Sporagin gektariga 4-6 litr yoki Fitolavin gektariga 1-2 litr sarf me'yorida foydalanish maqsadga muvofiq. Profilaktika maqsadida may va iyun oyida bir martadan purkalsa, kasallikni davolashda 7-14 kun oralig'ida takrorlab turiladi. Zamburug' kasalliklariga asosan grozan preparati, ayrim hollarda un shudring kasalligiga qarshi oltingugurt qo'llaniladi.

Xulosa. Dorivor moychechak (*Matricaria chamomilla L.*) o'simligidan yuqori va sifatli maxsulot olish uchun agrotexnik tadbirlarni o'z vaqtida o'tkazish, himoya qilish va ulardan oqilona foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Fenologik kuzatishlar natijalarini ko'rsatishicha, dorivor moychechakni mavsumiy rivojlanish ritmi ko'pchilik metrologik sharoitlar va ekish muddatlariga, kam darajada qator orasi kengligiga bog'liq bo'ladi. Moychechak tuproqlar meliorativ holatini ham sezilarli yaxshilay oladi.

Ishning amaliy ahamiyati shundaki, bajarilgan ilmiy ish ma'lumotlariga tayangan holda ushbu o'simlikni Samarqand viloyati tuproq-iqlim sharoitlarida bemalol ekib o'stirish, dorivor o'simliklar plantatsiyalarini yaratish imkonini beradi. Bu esa o'z o'rnida agrar sektorda dorivor o'simliklarni yetishtirish, saqlash, dastlabki va chuqur qayta ishlash hisobiga turli xil xalq tabobatida, sog'liqni saqlash tizimida ishlatiladigan dori preparatlarini yaratish, ishlab chiqarish va importdan kirib kelayotgan shu yo'nalishdagi preparatlarni o'rnini ma'lum hajmda egallash va eksport qilish imkoniyatini yaratadi.

REFERENCES

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 26 ноябрдаги ПҚ 4901-сон “Доривор ўсимликларни етиштириш ва қайта ишлаш, уларнинг уруғчилигини йўлга қўйишни ривожлантириш бўйича илмий тадқиқотлар кўламини кенгайтиришга оид чора тadbirlar тўғрисида”ги қарори. www.lex.uz
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 20 майдаги ПҚ–251–сон “Доривор ўсимликларни маданий ҳолда етиштириш ва қайта ишлаш ҳамда даволашда улардан кенг фойдаланишни ташкил этиш чора–тадбирлари тўғрисида”ги қарори. www.lex.uz
3. Аҳмедов Ў, Эргашев А, Абзалов А, Юлчиева М – Доривор ўсимликлар етиштириш технологияси ва экология. Тошкент. 2009 й
4. Тўхтаев Б.Ё., Махкамов Т.Х., Тўлаганов А.А., Маматкаримов А.И., Маҳмудов А.В., Аллаяров М.Ў. - «Доривор ва озукабоп ўсимликлар

плантацияларини ташкил этиш ва хом-ашёсини тайёрлаш бўйича йўриқнома», Тошкент. 2015 й.

5. Холматов Ҳ.Х., Хабибов З.Х., Олимхужаева Н.З. – Ўзбекистоннинг шифобахш ўсимликлари. «Ибн Сино нашриёти» – Тошкент. 1991 й.

6. Холиқулов Ш., Рахматуллаев А., Хамзин К. Метеорология ва иқлимшунослик (қисқа курси). – Самарқанд: СамДУ, 2002. –110 б.

7. Глазова М.Б. Селекция ромашки аптечной *Matricaria chamomilla* L. в Московской области: автореф. дис. канд. с-х. наук. М., 1978.

8. Тоцкая С.А., Конон Н.Т. Особенности технологии возделывания ромашки аптечной (*Matricaria chamomila* L.) на семена //Известия ТСХА, выпуск 2, 2010. -С.91-98.

